



TOM QOPLAMARI "SHIFER" ISHLAB CHIQUARISH TEXNOLOGIYALARI VA KORXONA SUV TA'MINOTINING YOPIQ ZANJIRLI TIZIMINI JORIY QILGAN HOLDA RIVOJLANISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI

Qurolova Norigul Ravshan qizi

assistant

Kuchimov Sardorbek Ulug'bek o'g'li

talaba

Ortiqqulov Davron Jahongir o'g'li

talaba

"QM va K" kafedrası

Jizzax politexnika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10464652>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-January 2024 yil

Ma'qullandi: 04- January 2024 yil

Nashr qilindi: 06- January 2024 yil

KEY WORDS

yopiq zanjirli suv ta'minoti, «Urgut Yashil Oltin», ish vaqti, suv ta'minoti, iqtisodiy samaradorlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada shifer ishlab chiqarish texnologiyalari, tayyorlanishi, ishlash prinsiplari xaqida so'z boradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish korxonasining yopiq zanjirli suv ta'minoti tizimini ishlab chiqish texnologiyasi haqida ma'lumot keltirilgan. ishlab chiqarish korxonasida qo'llaniladigan yopiq zanjirli suv ta'minoti tizimining afzalliklari, iqtisodiy samaradorligining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Yurtimizda iqtisodiy islohotlar jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Shuning bilan bir qatorda, ishlab chiqarish ko'rsatgichlarining kengayib borayotganligi, raqobatbardosh sanoat korxonalarining faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'pgina chora tadbirlar mahsulot sifatini yaxshilab boradi. Bu esa kommunikatsion g'oyalarni yanada takomillashtirishni talab etadi. Shifer ishlab chiqaruvchi «Urgut Yashil Oltin» nomli mazkur korxona Samarqand viloyatining Urgut tumanida, Samarqand qishlog'ida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 3.75 Ga ni tashkil etadi. Korxona tarkibi quyidagi bo'limlardan va binolarni o'z ichiga oladi:

- Birinchi shifer ishlab chiqaruvchi sex.
- Sement saqlanadigan bino.
- Yordamchi xom ashyolar saqlanadigan omborxonali binolar.
- Tayyor mahsulot
- Birinchi qozonxona.
- Mexanik, ta'mirlanayotgan maydon.
- Birinchi payvandlashni nazorat qilish bo'limi.
- Elektrostansiyasi.
- Xizmat mashinalari maydoni.
- Ma'muriy bino.

- Yordamchi binolar.
- Oshxona.

Shifer ishlab chiqarish jarayonida 240 nafar ishchi xodimlar faoliyat olib boradi, 210 nafar ishchilar doimiy, yordamchi ishchi xodimlar esa 30 nafarini tashkil etadi.

Shifer ishlab chiqarishning ish tartibi yiliga 343 kunni tashkil etadi. 2 ta navbatchilik qism xar 12 soatda almashinib ishlaydi. Har oy ishlab chiqarish jarayonning profilaktik ishini yanada takomillashtirish maqsadida 44 soatga uzaytiriladi.

Bugungi kunga kelib shifer ishlab chiqarishda 2 ta texnik yo'nalishlar faoliyat olib boradi. Shu yo'nalishlar asnosida shifer ishlab chiqarish bir sutka davomida 5000 donani tashkil etadi. Bugungi kunga qadar ishlab chiqarish sanoat korxonalarida suvdan ketma ket, takroriy va oqova suvlarni tozalab qaytadan yana foydalanish keng yo'lga qo'yilgan.

Yopiq zanjirli suv ta'minoti tizimidan foydalanish ancha samarali bo'lganligi uchun kam xarajat talab etadi. Ushbu tizimni asosan yangi qurilayotgan, endigina tashkil etilgan sanoat korxonalarida foydalanish ayni muddao. Urgut tumanidagi «Yashil Oltin» MChJ korxonasida ham bu tizimdan foydalanish yo'lga qo'yildi.

Sanoat korxonalarida texnologik jarayon uchun sarflanadigan suv miqdori sanoat turiga, qabul qilingan texnologik sharoitga, suv ta'minoti tizimining turiga, suv sifati va boshqalarga bog'liqdir. Sanoat ehtiyojlari uchun sarflanadigan solishtirma suv miqdori boshqa mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan solishtirma suv me'yori bo'yicha aniqlanadi. Bu me'yorlar texnologik hisoblar asosida u yoki bu korxona mutaxassislarining hisoblariga asoslanib belgilanadi.

Qabul qilingan me'yorlarni sanoat korxonalaridagi ishchilarning ish vaqti davomida ichish-xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan suv miqdoriga qarab o'zgartirish mumkin. Bunda sanoat korxonalarining turi va ishchilarning soni e'tiborga olinadi. Yopiq suv sistemalarida suv bir necha marta tozalanmasdan ishlatiladi va ushbu suv ochiq suv havzalariga tashlanmaydi. Yopiq zanjirli suv ta'minoti yangi toza suv bilan faqat sistemada suv kamayganda yoki ishlatilayotgan suv yaroqsiz holga kelganda qo'shiladi. Yopiq zanjirli suv ta'minoti barcha texnologik jarayonlarda suvning samarali ishlatilishni, oqova suv komponentlarini maksimal rekuperatsiya qilishni, kapital va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirishni, xizmat qiluvchi personallarning normal sanitar-gigienik sharoitlarini, atrof-muhit ifloslanishini istisno qilishni ta'minlashi lozim. Tozalangan suv texnologik suv sifatiga mos kelishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yopiq zanjirli suv ta'minoti tizimi sanoat korxonasi faoliyatini yanada yaxshilab, iqtisodiy samaradorlikning yanada oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, yopiq zanjirli suv ta'minoti tizimi suvdan bir necha marotaba foydalanish natijasida tejamkorlikni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov E.K. Qurilish ashyolari. Ma'lumotnoma. Toshkent.: "Cho'lpon" nomidagi NMIU, 2011.
2. Qurilish me'yorlari qoidalari. Me'yoriy qurilish atamaları. QMQ 1.01.04 – 98. "O'zdavxitektqurilish". Toshkent, 1998.
3. Bakhriev, N. F. (2023, October). Composite Wave Sheets from Basalt Fiber for Pitched Roofing NF Bakhriev and NR Qurolova. In Proceedings of 5th International Conference on Civil Engineering and Architecture: Proceedings of ICCEA 2022 (Vol. 369, p. 3). Springer Nature.

4. Bakhriev, N. F., & Qurolova, N. R. (2022, December). Composite Wave Sheets from Basalt Fiber for Pitched Roofing. In International Conference on Civil Engineering and Architecture (pp. 3-17). Singapore: Springer Nature Singapore.
5. Norgul, Q. (2022). BAZALT TOLALI KOMPOZITSION QOPLAMA MATERIALLARI ISHLANMASINI YARATISHNING ILMIY ASOSLARI. Journal of new century innovations, 13(2), 193-195.
6. Бердиев, О., Талипов, Н., Курбонов, З., & Болотов, Т. (2023). Development of a formulation for dry cement-adhesive dry building mixtures for ceramic slabs using the addition of spent alumina catalysts. Scientific Collection «InterConf», (180), 407-414.
7. Ганиев, А., & Курбанов, З. (2023). ВЛИЯНИЕ ХИМИЧЕСКИХ ДОБАВОК НА СВОЙСТВА ГИПСОВЫЙ НАЛИВНОЙ ПОЛ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 2), 160-163.
8. Kurbanov, Z., & Artiqqulov, D. (2023). DETERMINATION OF THE CONTENT OF DRY CONSTRUCTION MIXED ON THE BASIS OF LOCAL MARBLE WASTE POWDER. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(9), 104-106.
9. Kurbanov, Z., & Artiqqulov, D. (2023). OPPORTUNITIES TO GET LIGHT SUPPLIES BASED ON COAL WASTE. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(9), 100-103.
10. Курбонов, З., Эшқулов, Н., & Ортиққулов, Д. (2023). ҚУРУҚ ҚУРИЛИШ ҚОРИШМАЛАРИНИНГ АСОСИЙ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(5), 61-66.
11. Parsaeva, N., & Kurbanov, Z. (2023, June). Study of the process of determination of chemically contained water in the concentration of additional cement made on the basis of peroxine waste. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
12. Талипов, Н., Курбанов, З., & Артыққулов, Д. (2023). ЭФФЕКТИВНЫЕ СУХИЕ СМЕСИ С ПОЛИМЕРНЫМИ ДОБАВКАМИ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(5), 43-48.
13. Курбанов, З., & Ортиққулов, Д. (2023). ВЫСОКОПРОЧНЫЙ ГИПСОВЫЙ ВЯЖУЩИЙ НА ОСНОВЕ СУЛЬФАТСОДЕРЖАЩЕГО ОТХОДА. Models and methods in modern science, 2(2), 5-12.
14. Курбанов, З. Х., & Сулайманов, Ж. Ж. (2021). Подготовка зданий к отделке местными материалами из натурального камня. Science and Education, 2(5), 403-409.
15. Шоқосимов, И. К., & Курбанов, З. Х. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА ЗЕМЛЯНЫХ РАБОТ С ПРИМЕНЕНИЕМ ГЕОСЕТОК.
16. Курбанов, З. Х. угли Холбоев, СО (2021). Микроарматурализация сухих строительных смесей волластонитом. Science and Education, 2(5), 410-416.
17. Kurbanov, Z., & Parsaeva, N. (2022, June). Strong grinding based on local raw materials getting stones. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030104).